



TURKISTONDA VAQTLI MATBUOTNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHIDA SHARQ MA'RIFATPARVARLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI

Abdurasulov Akmaljon Maxamadjanovich

Namangan davlat Pedagogika institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda nashr qilingan “Taraqqiy”, “Osiyo”, “Oyina”, “Chayon”, “Cho‘l Chayon”, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” kabi gazeta va jurnallarning vujudga kelishi va rivojlanishida Sharq ma’rifatparvarlari bilan hamkorlik aloqalarini yoritishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: No‘shiravon Yovushev, Rauf Muzaffarov, Mahmud Budayli, “Ulug’ Turkiston”, “Mahmud Tarziy”, Ismoil Obidov, Mirzo Jalol Yusufzoda

KIRISH

Insoniyat tarixida axborot almashinuviga ehtiyoj doim juda kuchli bo‘lgan. Dastlab turli vositalar orqali axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirgan insoniyat keyinchalik maktublar va kitoblar orqali axborotga bo‘lgan talabini qondira boshladi. XVII asrdan boshlab sekin-asta axborot yetkazishning yangi vositasi gazetalar rivojlana boshladi. Gazetalar dastlab oddiygina axborot yetkazish vositasi bo‘lgan bo‘lsa, keyinroq jamiyatning ijtimoiy-siyosiy jihatdan rivojlantirish uchun ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qila boshladi. Yevropa madaniyatining jadallik bilan rivojlanishida, ilm-fanning taraqqiy qilishida gazetalarining ham o‘rni beqiyos edi. Dastlab Yevropada paydo bo‘lgan matbuot XVIII asr oxirlaridan musulmonlar yashaydigan hududlarda ham shakllana boshladi. Turkiston mintaqasida esa matbuot Rossiya imperiyasi mustamlakachilari bilan birga kirib keldi.

XIX asrning 60-70-yillarida Rossiya imperiyasi Turkistonni zabt etganidan so‘ng, o‘lkani o‘zining xomashyo bazasiga aylantirish va bu zaminning behisob boyliklarini talon-taroj qilish, mintaqada rus madaniyatini yoyish va Turkiston aholisini ruslashtirish uchun kuchli mafkuraviy ta’sir quroli bo‘lgan vaqtli matbuotga asos soldi.

Turkistonda birinchi bosmaxonaga 1868-yil harbiy okrug shtabi huzurida asos solindi. Lekin bu bosmaxona asosan blankalar, buyruq va devon uchun materiallar bosib chiqarishga moslashgan edi. Gazetalar yoki kitoblar bosib chiqarish uchun bu litografiyaning texnik imkoniyatlari ancha past bo‘lgan. Shu sababdan yangi bosmaxona tashkil qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu bosmaxona rus harflari bilan birga arab harflariga ham ega bo‘lishi mo‘ljallandi. Turkistonning birinchi general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman 1870-yil 20-avgustda turli blankalar, buyruq va devon materiallaridan tashqari gazetalar, jurnallar va kitoblar chop etishga qodir bo‘lgan yangi bosmaxonani Turkiston general-gubernatori devoni qoshida ochish to‘g‘risida farmon chiqardi[1: -B. 20].

Birinchi bosmadan chiqarilgan kitob rus sayyohi N. Seversevning qirq sahifali “Заметки о горной стране у вершин Чу и Нарына и о путях следования через нее в Китайский Туркестан” nomli risolasi edi[2: -B. 28]. Turkistonda birinchi bosmadan chiqarilgan gazeta “Туркестанские ведомости” bo‘lib, unga dastlab N. A. Mayev, uning o‘zbek tilidagi ilovasi “Turkiston viloyatining gazetasi”ga esa Shohimardon Ibrohimov muxarrirlik qildi. Bugungi maqolamizda biz vaqtli matbuotni rivojlanishida Sharq ma’rifatparvarlari bilan hamkorlik aloqalarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi rus inqilobi natijasida 1905-yil 17-oktabrda Nikolay II tomonidan e’lon qilingan manifestga ko‘ra mustamlaka halqlarga ham o‘z gazetalarini nashr qilishga ruxsat berildi. Shundan so‘ng Turkiston o‘lkasida birin ketin o‘zbek tilida gazeta va jurnallarga asos solindi. Bu gazeta va jurnallarni vujudga kelishi va rivojlanishida tatar, boshqird, ozarbayjon, afg‘on va turk ma’rifatparvarlarining hissasi katta bo‘ldi.

Masalan 1905–1906 yillarda Qozon badiiy maktabida o‘qigan Ismoil Obidovning faoliyatiga to‘xtalish mumkin. U 1906 yili Toshkentda “Taraqqiy” gazetasini tashkil qilgan. Mazkur gazeta 1906 yil 27 iyundan 1906 yil 20 avgustiga qadar chop etilgan[3: -B.108]. Gazeta haqida Abdulla Avloniyning yozishicha “Taraqqiy” gazetasining muxarriri Ichki Rossiya tatarlaridan Ismoil Obidiy Yo‘ldosh bo‘lgan[2: -B. 69-70]. Bu gazetada tatar ma‘rifatparvarlaridan Abdurauf Muzaffar, No‘shiravon Yavushev, Abdulla Begi, Mahmud Budayli[4:-B. 34], I. Aliyev, Sh. Muxtorov, rus sharqshunosi V. Nalivkin, o‘zbek ziyolilaridan M. Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Nozimaxonimlar faoliyat olib borishgan[2:-B.108-109]. Ammo bu gazeta chor ma‘murlari tomonidan yopib qo‘yiladi. Bu gazetaning faol qalamkashlaridan Abdurauf Muzaffar 1889 yilda Rossiyaning sobiq Simbirsk gubernasidagi Sinchilevsk uyezdi, Staro-Timoshkino qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati – tatar. Ayrim sabablar tufayli, u 1914 yilning boshlarida Turkistonga kelib qolgan[5:-B. 20].

“Taraqqiy” gazetasi faoliyati to‘xtatilgandan keyin, oradan ikki yil o‘tib, 1908-yil apreldan yana bir tatar ma‘rifatparvari A. Bektemirov muharrirligida “Osiyo” gazetasi chiqarila boshlandi. Taniqli o‘zbek ma‘rifatparvari A. Avloniy ham mazkur gazeta tashkil etilishida katta rol o‘ynagan[6:-B. 8]. Gazetaning beshta soni chiqqandan so‘ng podsho ma‘murlari tomonidan yopildi. Gazeta sahifalarida tatar olimi Abdurashid Ibrohimovning turkchilik va islomchilik masalalariga bag‘ishlangan, boshqa jadid ziyolilarining Turkistonda maorif tizimini isloh etish bo‘yicha maqolalari bosilgan edi[3:-B.110]. Sadoyi Farg‘ona gazetasida ham ko‘plab tatar marifatparvarlari faoliyat ko‘rsatgan. Masalan, tarjimon Nurmuhammad Usmonov bu gazetada ish olib borgan[7:-B.346]. Mashhur tatar siyosiy arbobi Islom Shoahmedov “Туркестанские край” gazetasiga asos solgan[4:-B.34]. Tatar ma‘rifatparvari No‘shiravon Yavushev “Sadoyi Turkiston”, “El bayrog‘i”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalarida maktab va madrasani isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish haqidagi maqolalari bilan gazeta faoliyatida ishtirok etgan.

Tatar ziyolilari Xalif Tulakov va Ibrohim Tohiriylar “Chayon” jurnaliga asos soladilar. Ammo bu jurnal yopib qo‘yilgach Ibrohim Tohiriy “Cho‘l Chayon” jurnaliga asos soladi[8:-B.25]. “Shuroi Islomiya” gazetasi 1917 yil 16 maydan Turkiston Markaziy “Sho‘roi Islomiya” jamiyati tomonidan chiqarilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy gazeta bo‘lib, uning muharriri tatar A. Battol edi[9:-B.50]. “El bayrog‘i” gazetasi 1917-yil sentabrda nashr etila boshlangan bo‘lib, bu gazetaga yana bir tatar ziyolisi Po‘lat Soliyev muharrirlik qiladi[10:-B.6-11]. “Ulug‘ Turkiston” gazetasi Toshkent tatarlarining nashri bo‘lib, 1917-yil 25-apreldan chop qilina boshlangan. Bu gazetaga boshqa bir tatar ziyolisi Kabir Bakir rahbarlik qiladi. Turkiy halqlarning birligini taminlashni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan “Kengash” gazetasiga boshqird millatiga mansub ma‘rifatparvar Ahmad Zakiy Validiy muharrirlik qilgan[8:-B.24].

Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan asos solingan “Oyina” jurnali sahifalarida nafaqat Turkistonliklar, balki turk, tatar, afg‘on, eron shoirlarining ham o‘z ijodiy namunalari bilan faol qatnashganliklarining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Rijoizoda Mahmud Akrom, Dog‘istoniylar, Kafkoziylar, Javdat, Shayx Olim Eroniy, Mahmud Tarziy, Zuhuriddin Fathiddinzoda kabi shoirlar ijodini misol qilib keltirish mumkin. Bu Sharq ziyolilari o‘z ijod namunalari bilan jurnal rivojiga munosib hissa qo‘shadilar.

1912-yili Buxoro jadidlari asos solgan “Buxoroi Sharif” va “Turon” gazetalarining muxarriri Ozarbayjonlik mashhur ma‘rifatparvar Mirzo Jalol Yusufzoda edi. “Buxoroi Sharif” gazetasining sahifalarida uning jami 200 dan ortiq maqola, risola, suhbat, xatlarga javoblari va habarlari bosilgan. Yana bir qator she‘rlari “Turon” gazetasi sahifalarida bosib chiqarilgan[4:-B.49].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining dastlabki nashri bo‘lgan “Buxoro axbori” gazetasining 1923-yildan boshlab oxirgi 9 ta soniga va uning o‘rniga nashr qilina boshlagan “Ozod Buxoro” gazetasining 87 ta soniga tatar jurnalisti Qosim Sorokin boshchilik qiladi[11:-B.109]. Qosim Sorokin gazetaning badiiy saviyasining o‘sishiga katta hissa qo‘shadi. Umuman olganda Turkistonda Sharq ma‘rifatparvarlarining vaqtlilik matbuotning rivojida hissalari ulkan bo‘ldi. Ushbu maqolada ularning ayrimlari haqida ma‘lumot berdik xolos. Keyingi tadqiqotlarimizda Sharq ma‘rifatparvarlarining vaqtlilik matbuotdagi faoliyatini batafsil yoritishga harakat qilamiz.



XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Turkistonda vaqtli matbuotning vujudga kelishi va rivojlanishida Sharq ma'rifatparvarlari hisssasi juda katta bo'ldi. Gazeta va jurnallarning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy va badiiy jihatdan saviyasining yuksalishida Sharq ziyolilari katta rol o'ynadilar. Ular tomonidan vaqtli matbuot sahifalarida ilgari surilgan ilg'or g'oyalar Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida chuqur iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-ro'yxat, 2879-ish.
2. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870–1914). – Toshkent: Akademiya, 2000.
3. Isoqboev A. A. Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi diss. ... – Namangan: 2008.
4. Jamolova D. Turkiston jadidlarining tatar, turk, afg'on va ozar taraqqiyparvarlari bilan aloqalariga oid // O'zbekiston tarixi, 2022, №3.
5. O'zbekiston Milliy arxivi. T. 132-fond, 3-ro'yxat, 1-ish.
6. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
7. O'zbekiston Milliy arxivi. I. 461-fond, 1-ro'yxat, 1315-ish
8. Mingnarov A. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning milliy matbuotda yoritilishi (1917–1918 yillar). – Toshkent: Istiqolol nuri, 2013.
9. Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927).–Toshkent–Samarqand: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1927.
10. Temirov F. Po'lat Soliyev. – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011.
11. Rahmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari. - Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti, 2015.